

SMTda Bundestagning “Germaniya – Markaziy Osiyo” parlament guruhi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.



Joriy yilning 30 aprelida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida (SMTI) Bundestagning “Germaniya – Markaziy Osiyo” parlament guruhi hamda XDI/XSI fraksiyasi a‘zosi Manfred Grund boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Tomonlar O‘zbekiston-Germaniya hamkorligini rivojlantirish, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik istiqbollari, shuningdek, O‘zbekistonning Afg‘oniston bo‘yicha yondashuvlarini atroflicha muhokama qildilar.

Mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli va sheriklik munosabatlari jadal rivojlanayotgani ta’kidlandi. Bu o‘z navbatida oliy va yuqori darajadagi siyosiy aloqalarni faollashishi bilan bog‘liq.



Toshkentning mintaqaviy siyosatiga alohida to‘xtalib o‘tildi. “Prezident Shavkat Mirziyoyevning kelishi bu siyosatni tubdan o‘zgartirdi. O‘zbekiston va qo‘shni respublikalar o‘rtasidagi aloqalarning faollashgani

tufayli mintaqada misli ko'rimagan darajada hamkorlik rivojlanmoqda. Bu, o'z navbatida, "Markaziy Osiyo+Germaniya" formatidagi sheriklikni mustahkamlashga turtki bo'ldi", — deya ta'kidladi Manfred Grund.

Germaniya Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy, energetika, ekologiya va boshqa sohalarda mintaqalararo hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlashi mehmonlar tomonidan alohida qayd etildi.

Parlament a'zolari O'zbekistonning Afg'oniston bilan munosabatlarni yo'lga qo'yish borasidagi yondashuvlari haqida gapirar ekan, Toshkentning ushbu mamlakatni mintaqaviy iqtisodiy aloqalarga jalb etish va afg'on yoshlari uchun ta'lim loyihalarini ilgari surish istagini alohida ta'kidladilar.

Uchrashuv yakunida nemis tomoni O'zbekiston bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suv tejavchi texnologiyalarni joriy etish, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish sohasida uzoq muddatli va o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga qiziqish bildirdi.